

## PLEONAZM VA TAVTOLOGIYALARNING TILNING TURLI YARUSLARIDA QO`LLANILISHI

**Abdusamatova Ominabonu G`ulomjon qizi**

Andijon Davlat universiteti 2-bosqich doktoranti

+998901486843

[ominahonn@mail.ru](mailto:ominahonn@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tavtologiya va pleonazmning turli til darajalarida o`rganilishi va tizimlashtirilishiga bag`ishlangan. Tadqiqotning maqsadi tavtologiya va pleonazmning asosiy xususiyatlarini aniqlash, ularning fonetika, sintaksis kabi turli til qatlamlarida qanday qo`llanilishini tahlil qilishdan iborat. Muallif ushbu ikki tushuncha o`rtasidagi farqlarni aniqlashga harakat qilib, o`z tadqiqotida qiyosiy uslubdan foydalangan. Tahlil natijalari shuni ko`satadiki, zamonaviy tilshunoslikda tavtologiya va pleonazm mustaqil til hodisalari bo`lib, ular faqat uslubiyatda emas, balki fonetika va sintaksisda ham uchraydi.

**Kalit so`zlar:** leksik ortiqchalik, tavtologiya, pleonazm, farqlovchi belgilar, reduplikatsiya.

**Аннотация:** Настоящая статья посвящена изучению и систематизации тавтологии и плеоназма на разных уровнях языка. Целью исследования является рассмотрение признаков тавтологии и плеоназма, их функционирования на различных языковых ярусах, как фонетика, синтаксис. Автор постарался найти разграничение между этими двумя терминами, употребляя сравнительный метод в своём исследовании. Результаты анализа позволяют сделать вывод о том, что в современной лингвистике тавтология и плеоназм представляют собой самостоятельные явления, которые встречаются не только в стилистике, но и в фонетике и синтаксисе.

**Ключевые слова:** лексическая избыточность, тавтология, плеоназм, дифференциальные признаки, редупликация.

**Abstract:** This article is dedicated to the study and systematization of tautology and pleonasm at different levels of language. The objective of the research is to examine the characteristics of tautology and pleonasm, as well as their functioning across various linguistic layers, such as phonetics and syntax. The author attempts to establish a clear distinction between these two terms by employing a comparative method in the study. The analysis results indicate that in modern linguistics, tautology and pleonasm are independent linguistic phenomena that occur not only in stylistics but also in phonetics and syntax.

**Keywords:** lexical redundancy, tautology, pleonasm, differential features, reduplication.

Zamonaviy tilshunoslikda tavtologiya va pleonazm atamalarini farqlash bilan bog‘liq asosiy masala nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb bo‘lishiga qaramay, hanuzgacha o‘z yechimini topmagan. Ushbu hodisalarni aniq differensial belgilari bilan tavsiflashdagi qiyinchiliklarning sabablari orasida bu masalaga bag‘ishlangan maxsus monografik tadqiqotlarning yetishmasligi hamda lingvistik yondashuvlarning xilma-xilligi mavjud bo‘lib, bu tavtologiya va pleonazm tushunchalarini hamda ularning til tizimidagi funksiyalarini turlicha talqin qilishga olib keladi. Odatda, tadqiqotchilarning e’tibori tavtologiya va pleonazmning alohida jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Masalan, mazkur til hodisalarining tarixiy rivojlanishi va farqlanishiga oid ayrim masalalar A.I. Vasilyev, A.P. Yevgenyeva va G. Selivanovaning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Ushbu mavzu yuzasidan g`arb olimlari tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo`lishiga qaramay, aynan o‘zbek tilida bu mavzu yuzasidan yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Sababi yuqorida ta`kidlab o`tilgan tushunchalar nafaqat stilistikada, balki tilning boshqa yaruslarida ham qo`llanilishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi ortiqchalikning fonetika, sintaksis kabi tilshunoslikning muayyan bo`limlarida qanday foydalanilishi va ularning stilistikada qo`llanilishidan farqli jihatlarini tadqiq qilishdan iborat.

Olimlar tomonidan fonetik pleonazmlar haqida turli xil qarashlar ifodalangan. R. Kuygurov fonetik pleonazmlar til tizimida ham uchrashishini ta'kidlaydi. Kaxarova Nning fikricha, fonetik takrorlarni pleonastik qo'llanish sifatida ko'rib chiqish noto'g'ri. Aks holda, unlilarning almashinuvi, so'zlearning takrorlanishi, so'zlearning taqlidi va barcha takroriy shakllar pleonastik qo'llanish deb nomlanishi kerak bo'ladi. Natijada, pleonazm chegaralarini aniqlashda chalkashliklar yuzaga keladi.

Pleonazmning yana bir turi sintaktik pleonazmdir. Ular, asosan, o'zbek tilining shevalari uchun xosdir. Ma'lumki, so'zlashuv nutqi tinglovchiga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan, oldindan tahrirlanmagan va silliqlanmagan nutq shaklidir. Yozma nutqda fikrni ifodalash shaklini tanlash imkoniyati mavjud bo'lsa, so'zlashuv nutqida bunday imkoniyat mavjud emas. Shu sababli, so'zlovchi o'z fikrini ifodalash jarayonida fikrning o'ziga chalg'imaydi, balki gapni mantiqiy izchillikda davom ettirish uchun yangi usulda bog'laydi. Bunday holatda birinchi gapning oxirgi qismi (poperechniy tarkib) ikkinchi gapning bosh qismiga ko'chiriladi, natijada sintaktik pleonazm yuzaga keladi.

Demak, gap tuzilishining kengayishi, aniqroq aytganda, ortiqcha yoki nomaqbul so'zlar va birikmalar hisobiga kengayishi oldindan rejorashtirilmagan muloqot natijasida yuzaga keladi va pleonazmning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi [1. 4-5].

Ravshanki, aynan rus tilida ham ushbu mavzu yuzasidan ma'lum bir izlanishlar olib borilgan bo`lib, natjalarga ko`ra, tavtologiya quyidagi til darajalarida namoyon bo'ladi:

1. Fonetik daraja: Til materiallariga asoslanib, ikkita periferik tavtologik birikma turi ajratilishi mumkin. Ushbu holatlarda tovush shakllari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, semantik ma'no turlicha bo'ladi:

a) Fonetik tavtologiya – tarkibiy qismlar o'zaro ohangdosh, biroq ular bir-birining semantikasini takrorlamaydi (odatda, bunday iboralar uslubiy jihatdan o'zini oqlaydi,

chunki ular o‘quvchining e’tiborini jalb qilish uchun xizmat qiladi). Masalan: **Концам света конец не светит** («КП», 27.09.2012);

b) Etimologik tavtologiya – tarkibiy qismlar bitta ildizga asoslanadi, natijada ularning shakli bir xil bo‘lsa-da, ekstralingvistik omillar sababli mazmun takrorlanmaydi. Masalan: *Перейдя на чёрные чернила, Нечипоренко поставил кляксу* («Нева», 2003).

2. Leksik-semantik daraja:

a) Konvensional tavtologiy – til normalarida mustahkamlangan iboralar:

*Судей тоже судят* («РГ», 20.11.2003);

b) To‘g‘ridan-to‘g‘ri tavtologiya – tarkibiy qismlar shakl va mazmun jihatdan takrorlanadi:

- Uslubiy maqsadda ishlatilgan tavtologiya: *Ходячие жёлтые пилюлины, смысл жизни которых заключается в служении злейшим злодеям планеты Земля* (zebra-tv.ru, дата обращения - 12.07.2015);

- Tasodifan ishlatilgan tavtologiya, xato deb qabul qilinadi : *Они на двух машинах объехали все владимирские остановочные пункты Владимира* (zebra-tv.ru, дата обращения –15.07.2015).

Shunday qilib, tavtologiyaning turli turlari mavjud bo‘lsa-da, faqat bittasi xato sifatida qabul qilinadi, qolganlari esa ma’lum semantik yoki uslubiy maqsadlarda ishlatiladi.

3. Sintaktik daraja: Конечно, праздник праздником, а безопасность безопасностью («Владимирская газета», 6.08.2010).

4. Morfemik daraja:

a) Old qo‘srimcha yonida kelgan ravish uning ma’nosini takrorlaydi: *Огромная связка разноцветных шаров взлетает вверх* («Звезда», 2010);

b) Fe'l shaklida ishlatilgan qo‘srimcha yonida kelgan ravish ma’noni takrorlaydi: ...он попытался отрефлексировать уже имеющийся опыт... (lenta.ru, 8.07.2015) [2. 37-37].

T. A. Kovalova tavtologiyani semantik va pragmatik asoslangan (masalan, *A я буду вам улыбаться улыбкой блаженной*) yoki asoslanmagan (masalan, Достроить объекты незавершённого строительства) takrorlash shakli deb tushunadi. Tavtologiya bir xil ildizga ega, lekin grammatik jihatdan farqlanuvchi leksik birliklarning takrorlanishiga asoslanadi (поднялись на довольно высокую высоту) misolida bo‘lgani kabi va bir vaqtning o‘zida fonetik hamda leksik darajada namoyon bo‘ladi [3. 6].

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlab o`tish joizki, pleonazm va tavtologiya tushunchalari, umumiy olganda nutqiy ortiqchalik fonetikadan tortib sintaksis, morfologiya, so`z yasalishi kabi lingvistika bo`limlarining barchasida mavjud bo`lib, ular turlicha talqin qilinadi. Natijada, yangi tushunchalar vujudga keladi va har biri alohida o`rganish talab qiladi. Ularning o`rtasidagi o`xshashlik va tafovutlarni aniqlash ham biroz mushkuldir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Кахарова Н. Н. К вопросу о рассмотрении литературной нормы и плеоназма в узбекском языке. Economy and innovation, 2023.- 6 с.
2. Ковалёва Т. А. Тавтология и плеоназм в отечественном языкознании: интегральный и дифференциальный аспекты. Вестник МГОУ: Русская филология, 2016.- 38 с.
3. Ковалева Т. А. Тавтология и плеоназм в русском языке XXI века: полисистемный аспект : автореф. дис. ... канд. филол. наук : 10.02.01. – Великий Новгород, 2017. – 22 с.